

## **O‘ZBEK VA YAPON SOMATIK FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI**

**Islomova Muniraxon Muhammadrasul qizi**

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Yapon filologiyasi kafedrası magistranti

**Ilmiy rahbar: Xamidova Nargiza**

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Yapon filologiyasi kafedrası mudiri

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada o‘zbek va yapon tillaridagi bosh va yuz komponentli somatik frazeologik birliklarning (SFB) lingvokulturologik xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi mazkur birliklarda tana a‘zolari nomlari orqali kodlangan milliy-madaniy qarashlar, emotsional baho va ijtimoiy-pragmatik vazifalarning tizimli modelini ishlab chiqish hamda ikki tildagi konseptual o‘xshashlik va farqlarni aniqlashdan iborat. Metodologiya sifatida korpusga asoslangan tanlash, semantik motivatsiya tahlili, kognitiv metafora va metonimiya yondashuvi, shuningdek, konseptual-domen xaritalash qo‘llanildi.*

**Kalit so‘zlar:** somatik frazeologizm, bosh komponenti, yuz komponenti, lingvokulturologiya, kognitiv metafora, qiyosiy tahlil, pragmatika, madaniy skript.

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье в сравнительном аспекте анализируются лингвокультурологические особенности соматических фразеологических единиц (СФЕ) с компонентами «голова» и «лицо» в узбекском и японском языках. Цель исследования заключается в разработке системной модели национально-культурных представлений, эмоциональной оценки и социально-прагматических функций, закодированных посредством наименований частей тела в данных единицах, а также в выявлении концептуальных сходств и различий в двух языках. В качестве методологии исследования применялись корпусный отбор материала, анализ семантической мотивации, когнитивно-метафорический и метонимический подходы, а также концептуально-доменное картирование.*

**Ключевые слова:** соматический фразеологизм, компонент «голова», компонент «лицо», лингвокультурология, когнитивная метафора, сравнительный анализ, прагматика, культурный скript.

## ABSTRACT

*This article offers a comparative analysis of the linguacultural characteristics of somatic phraseological units (SPUs) containing "head" and "face" components in the Uzbek and Japanese languages. The study aims to develop a systemic model of national-cultural outlooks, emotional evaluations, and socio-pragmatic functions encoded through body-part terms in these units, as well as to identify conceptual similarities and divergences between the two languages. The methodology integrates corpus-based selection, semantic motivation analysis, cognitive metaphor and metonymy approaches, and conceptual domain mapping.*

**Keywords:** *somatic phraseologism, head component, face component, linguaculturology, cognitive metaphor, comparative analysis, pragmatics, cultural script.*

## KIRISH

Til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik zamonaviy tilshunoslikning eng muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Lingvokulturologik yondashuv frazeologik ma'noni faqat til tizimi doirasida emas, balki madaniy tajriba, kollektiv stereotip va ijtimoiy muloqot qoidalari bilan birgalikda ko'rishni nazarda tutadi.<sup>1</sup> Uning mexanizmi konseptlar va qiymatlar ierarxiasini, shuningdek, nutqiy odob va baholash registrlarini frazeologik birliklar orqali "indekslash"dan iborat bo'lib, bosh va yuz komponentlari bu jarayonda "shaxs" konseptining ikki asosiy o'lchami sifatida ishlaydi.

Somatik frazeologik birliklar deganda tarkibida tana a'zolari nomi qatnashib, barqaror ma'no va baholovchi pragmatikani ifodalovchi ko'p so'zli birliklar tushuniladi. Inson tana a'zolari bilan bog'liq birliklar tilning eng qadimiy va faol qatlamlaridan biri bo'lib, insonning jismoniy tajribasi asosida shakllanganligi sababli ular milliy mentalitetni ifodalashda alohida ahamiyat kasb etadi.<sup>2</sup> Bosh va yuz inson idroki hamda ijtimoiy o'zini tutishning markaziy belgilari bo'lgani uchun bunday birliklar tarkibida yetakchi o'rin tutadi.

Ushbu hodisaning kognitiv mexanizmi shundan iboratki, "bosh" aqliy boshqaruv, intellekt, qaror va mas'uliyat domenlarini, "yuz" esa obro', sharm-hayo, ijtimoiy ko'rinish va emotsional ekspressiyani konseptual ravishda modellashtiradi. Natijada tillarda metafora hamda metonimiya orqali barqaror semantik xaritalar yuzaga keladi [6, 56-b.]. Masalan, o'zbek tilida bosh bilan bog'liq "bosh qotirmoq" kabi birliklar fikrlash jarayonini kuchaytirish bilan motivatsiyalansa, yapon tilida 顔

<sup>1</sup> Maslova V. A. Lingvokulturologiya. – Moskva: Akademiya, 2001. – 18b.

<sup>2</sup> Mamatov A. E. O'zbek frazeologiyasi masalalari. – Toshkent: Fon, 34 b.

が広い (*kaō ga hiroi* – “yuz(i) keng”) birligi ijtimoiy tarmoqning kengligini obro‘domeni orqali ko‘rsatadi.

Mavzu bo‘yicha adabiyotlarda somatik frazeologiya ko‘pincha semantik maydonlar, motivatsiya turlari yoki tarjima muammolari doirasida yoritilgan, ammo bosh va yuz komponentlarini aynan o‘zbek va yapon tillari kesimida lingvokulturologik tipologiya asosida qiyoslash nisbatan kam uchraydi. Qiyosiy ishlar ko‘pincha universal metaforalarni sanab o‘tish bilan cheklanib, pragmatik registrlar, ijtimoiy rollar va baholovchi predikatsiyaning diskursdagi taqsimotini yetarli darajada ko‘rsatmaydi.<sup>3</sup> Masalan, “bosh ko‘tarmoq”ning o‘zbekcha kontekstlarda qarshilik va faollik ma‘nolari<sup>4</sup>, yaponcha 頭が上がらない (*atama ga agaranai* – “bosh ko‘tara olmaslik”) birligida esa qarzdorlik va hurmatdan kelib chiqadigan bo‘ysunish ma‘nosi bilan to‘qnash keladi, bu esa bir xil somatik obrazning turli madaniy stsenariylarga ulanganini ko‘rsatadi.

Shu jihatdan mazkur tadqiqotning dolzarbligi o‘zbek va yapon tillaridagi bosh va yuz komponentli birliklarning qiyosiy-lingvokulturologik xususiyatlarini aniqlash, milliy-madaniy tafakkurning frazeologik tizimda aks etishini miqdoriy ko‘rsatkichlar bilan asoslash hamda madaniyatlararo kommunikatsiya uchun ilmiy-empirik zamin yaratish zarurati bilan belgilanadi.

### **Mavzuning o‘rganilish darajasi**

Frazeologik birlik nazariyasining tizimli shakllanishi akademik V.V. Vinogradov nomi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u birliklarni semantik yaxlitlik darajasiga ko‘ra tasniflagan.<sup>5</sup> A.V. Kunin esa frazeologik tizimning struktur-semantik xususiyatlarini o‘rganib, ularning kommunikativ va funksional imkoniyatlarini tahlil qilgan.<sup>6</sup>

Lingvokulturologiya yo‘nalishi V.A. Maslova, V.N. Teliya va A. Vejbitskaya kabi olimlarning ishlari orqali rivojlantirildi. Ular til birliklari orqali madaniy konseptlar va “madaniy script”larning ifodalanishini ilmiy asoslab berganlar. G. Lakoff va M. Johnson esa konseptual metafora nazariyasi orqali inson tafakkurida tana a‘zolari asosidagi metaforik modellashtirish mexanizmini tushuntirib, tana tajribasining til semantikasidagi o‘rnini ko‘rsatdilar.<sup>7</sup>

<sup>3</sup> Teliya V. N. *Phraseology and Culture // Phraseology: Theory, Analysis, and Applications*. – Oxford: Clarendon Press, 1998. – Pp. 55–75.

<sup>4</sup> Rahmatullayev Sh. *O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati*. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 68 b.

<sup>5</sup> Vinogradov V. V. *Основные типы фразеологических единиц русского языка // Избранные труды. Лексикология и лексикография*. – Москва: Наука, 1977. – С. 140–161.

<sup>6</sup> Kunin A. V. *Kurs frazeologii sovremennogo angliyskogo yazyka*. – Moskva: Vysshaya shkola, 1996. – 381 s.

<sup>7</sup> Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.

Yapon tilshunosligida somatik birliklar ko‘proq pragmatika va kommunikativ odob nuqtayi nazaridan o‘rganilgan. P. Brown va S. Levinson tomonidan ishlab chiqilgan “odob nazariyasi” (politeness theory) yapon tilidagi “yuz” (*face / menboku*) va ijtimoiy harmoniya (*wa*) konseptlarini tahlil qilishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.<sup>8</sup>

O‘zbek tilshunosligida Sh. Rahmatullayev o‘zbek frazeologiyasining lug‘aviy-semantik asoslarini yaratdi va tizimli tadqiq etdi. Shuningdek, A.E. Mamatov, Sh. Iskandarova va Sh. Safarov kabi olimlar tomonidan o‘zbek frazeologiyasi, somatizmlar va kognitiv tilshunoslikning nazariy masalalari yoritilgan bo‘lsa-da, aynan o‘zbek va yapon tillaridagi bosh va yuz komponentli somatik frazeologizmlarning lingvokulturologik qiyosiy tahlili maxsus va tizimli ravishda tadqiq qilinmagan.

### **Material va metodlar**

Tadqiqot materiali sifatida “bosh” va “yuz” komponentli frazeologik birliklar o‘zbek va yapon frazeologik lug‘atlari<sup>9</sup> hamda milliy matn korpuslaridan tanlab olindi. Birliklar tanlovida ularning barqarorligi, ko‘chma ma‘nosi va nutqdagi takroriy qo‘llanishi asosiy mezon bo‘ldi. Korpusdan kontekstlarni ajratib olish, variantlarni normallashtirish, omonimik birikmalarni chiqarib tashlash va har bir birlik uchun kamida ikki kontekstni saqlash orqali materiallar saralandi.

Tanlangan umumiy namunada 240 ta birlik va 720 ta kontekst (har birlikka o‘rtacha 3 tadan) jamlandi. Muvozanatni saqlash uchun o‘zbek korpus qismidan 360 ta, yapon qismidan 360 ta kontekst tahlilga jalb qilindi. Kontekstlar sonini tenglashtirish qiyosiy tahlilda chastota va funksional taqsimot bo‘yicha xulosalarni metodik jihatdan ishonchliroq qiladi, chunki notekis korpus hajmi baho va pragmatika ko‘rsatkichlarini sun‘iy ravishda siljitishi mumkin. Tanlangan kontekstlarning taxminan 40%ini badiiy adabiyot, 35%ini publitsistika va 25%ini og‘zaki nutq hamda ijtimoiy tarmoqlar transkriptlari tashkil etdi.

Tadqiqotda quyidagi metodlar majmuidan foydalanildi:

1. **Qiyosiy-tipologik va tavsifiy metod:** Ikki turli tizimli tildagi SFBlar tarkibidagi somatizmlarning semantikasi, strukturasi va madaniy yuklamasining o‘xshash hamda farqli jihatlarini aniqlash.

2. **Kognitiv metafora va metonimiya yondashuvi:** “Bosh” va “yuz” organlarining jismoniy-fiziologik xususiyatlaridan abstrakt ijtimoiy-psixologik domenlarga ko‘chish mexanizmlarini o‘rganish.<sup>10</sup>

<sup>8</sup> Brown P., Levinson S. C. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 345 p.

<sup>9</sup> Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992y.

<sup>10</sup> Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – 92 b.

3. **Diskursiv va lingvokulturologik tahlil:** Til birliklarining real kommunikativ vaziyatdagi va madaniy skriptlar doirasidagi pragmatik vazifasini aniqlash.

Kodlash jarayonida har bir birlik uch parametr bo'yicha belgilandi: *motivatsiya turi* (metafora, metonimiya, aralash), *baholash qutbi* (ijobiy, salbiy, neytral) va *pragmatik registr* (shaxsiy emotsiya, ijtimoiy munosabat, axloqiy norma). Kodlashning ikki bosqichli tekshiruvda tasnif mosligi 0.86 koeffitsiyenti atrofida barqarorlashdi, bu esa sifat tahlilini miqdoriy nazorat bilan uyg'unlashtirish imkonini berdi.

### **Natijalar va tahlil**

Tanlangan korpus va lug'at materialidagi 240 ta birlikdan 122 tasi o'zbek, 118 tasi yapon tiliga to'g'ri keldi. Ularning qariyb 64 foizi baholovchi semantika, 36 foizi esa holat-tavsif semantikasini bildiradi.<sup>11</sup> Bunday nisbat baholashning universalligi bilan birga, uning madaniy "skript"lar orqali farqlanishini ko'rsatadi.

### **Bosh komponentli birliklar tahlili**

Bosh komponentli birliklar (umumiy 128 ta: 66 ta o'zbek, 62 ta yapon) har ikki tilda asosan aql, boshqaruv va mas'uliyat domenlari bilan bog'lanib, "kognitiv nazorat"ni ifodalovchi somatik model sifatida namoyon bo'ladi. Mexanizm shundan iboratki, "bosh" nominal somatizm sifatida "markaz" va "yuqori nuqta"ni bildiradi, u orqali fikr yuritish, qaror qabul qilish yoki boshqarish jarayonlari semantik jihatdan "tana"ga joylashtiriladi. Birliklarining 71 foizida motivatsiya aralash, ya'ni metonimiya asosida metaforik kengayish kuzatildi. Bu holat somatik obrazlar dastlab konkret tajribaga tayanganini, so'ngra ijtimoiy va kognitiv abstraksiyalarga ko'chganini tasdiqlaydi.

*O'zbek tilida* bosh ko'proq rahbarlik, sharaf, shaxsiy mas'uliyat va ruhiy holat ramzidir<sup>12</sup>:

- **Boshi osmonga yetmoq:** Quvonchning maksimal darajasi, ruhiy yuksalish.
- **Bosh qotirmoq:** Chuqur o'ylash va intellektual energiya sarflash.
- **Boshidan o'tmoq:** Shaxsiy hayotiy tajribaga ega bo'lish.
- **Bosh egmoq:** Hurmat qilish yoki ixtiyorsiz ravishda taslim bo'lish.
- **Boshini yo'qotmoq:** Hayajon yoki qo'rquvdan esankirash, nazoratni yo'qotish.

*Yapon tilida* 頭 (*atama* – bosh) komponentli birliklar ko'proq ijtimoiy ierarxiya, kamtarlik, ichki nazorat va odob-axloq bilan chambarchas bog'langan<sup>13</sup>:

<sup>11</sup> Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1992y.

<sup>12</sup> Iskandarova Sh. Lingvokulturologiya asoslari. – Toshkent: Kalaon, 2010. – 148 b.

<sup>13</sup> Brown P., Levinson S. C. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 345 p.

- **頭が上がらない** (*atama ga agaranai*): Boshqalar oldida qarzdorlik yoki chuqur minnatdorlik hissi sababli ustunlik qila olmaslik, ma'nan bo'ysunish.
- **頭をひねる** (*atama o hineru*): "Boshni buramoq" – qiyin muammo ustida bosh qotirmoq, yechim izlamoq.
- **頭に入る** (*atama ni hairu*): "Boshga kirmoq" – ongiga singmoq, tushunmoq, yodda saqlamoq.
- **頭を下げる** (*atama o sageru*): "Boshni pasaytirmoq" – ta'zim qilmoq, rasmiy uzr so'ramoq yoki chuqur hurmat ko'rsatmoq.
- **頭が真っ白になる** (*atama ga masshiro ni naru*): "Boshi qop-oq bo'lib qolmoq" – kuchli stress, kutilmagan vaziyat tufayli hushini yo'qotib qo'yish, nima qilishni bilmay qolish.

### **Yuz komponentli birliklar tahlili**

Yuz komponentli birliklar (umumiy 112 ta: 56 ta o'zbek, 56 ta yapon) ko'proq obro', uyat, hurmat va jamoa oldidagi maqom domenlariga jamlangan bo'lib, "ijtimoiy ko'rinish" modelining ustunligini ko'rsatadi. Yuz ko'rish va tanilishning asosiy vizual belgisi bo'lgani uchun "yuz" metonimik tarzda "shaxs"ni, "shaxs" esa ijtimoiy baho va maqomni chaqiradi.

O'zbek tilida yuz asosan shaxsiy sha'n, axloqiy me'yor va ochiq emotsional holat bilan bog'liq: "yuzim yorug' bo'ldi" birligi ijtimoiy ma'qullanish natijasidagi ruhiy yengillikni bildirsa, "yuzsiz" kabi birliklar axloqiy me'yor buzilishini ochiq va keskin qoralashga xizmat qiladi.

Yapon tilida 顔 (*kao* – yuz) yoki 面目 (*menboku* – obro'/yuz) komponentlari ijtimoiy munosabatlarni boshqarishga, boshqaning maqomini saqlashga yo'naltirilgan: 顔を立てる (*kao o tateru* – "yuzni tiklamoq") birligi boshqani hurmat qilish va uning jamoat oldidagi obro'sini asrash harakatini ifodalaydi. 面目が立つ (*menboku ga tatsu* – "yuz-obro' tiklanadi") esa vaziyatni murosali yakunlash va ijtimoiy muvozanatni saqlashga qaratilgan.

### **Statistik ko'rsatkichlar va tipologik taqsimot**

Statistik ishlov berish natijasida o'zbek va yapon tillarida baholovchi qutblar va pragmatik registrlarning o'ziga xos mutanosibligi aniqlandi. O'zbek tilida bosh komponentli birliklarning 58 foizi salbiy, 24 foizi ijobiy, 18 foizi neytral segmentga tegishli. Yapon tilida esa yuz komponentli birliklarning 55 foizi salbiy, 20 foizi ijobiy, 25 foizi neytral segmentni tashkil etdi. Somatik frazeologiyada salbiy

baholashning ko‘pligi kommunikativ nazorat va ijtimoiy normativlik bilan bog‘liq bo‘lib, “xatoni belgilash” va “ogohlantirish” funksiyasi barqaror shakllarda tezroq frazeologiyalashadi.

Bosh va yuz komponentlarining uchta pragmatik registr (shaxsiy emotsiya, ijtimoiy munosabat, axloqiy norma) bo‘yicha taqsimot ulushlari quyidagi jadvalda umumlashtirildi:

Til	Somatik Komponent	Shaxsiy Emotsiya (%)	Ijtimoiy Munosabat (%)	Axloqiy Norma (%)
O‘zbek tili	Bosh komponenti	38%	27%	35%
	Yuz komponenti	30%	24%	46%
Yapon tili	Bosh ( <i>Atama</i> )	26%	33%	41%
	Yuz ( <i>Kao / Menboku</i> )	18%	60%	22%

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek tilida yuz komponenti ko‘proq axloqiy norma va shaxsiy sha’nni baholashga yo‘naltirilgan bo‘lsa (46%), yapon tilida yuz komponenti ijtimoiy munosabatlarni muvozanatlash va odob strategiyalarida mutloq ustunlikka ega (60%). O‘zbek tilida bosh komponenti shaxsiy emotsiya va intellektual holatlarni ifodalashda yapon tiliga qaraganda faolroqdir (38%).

Tarixiy-semantik qatlam tahlili ham qiziqarli faktlarni ochib berdi. Masalan, o‘zbek og‘zaki nutqida “bosh egmoq” hurmat va bo‘ysunish aktini bildirsa, yapon tilidagi 頭を下げる (*atama o sageru*) ham xuddi shu jismoniy harakatga asoslanadi. Biroq yapon kontekstlarida bu ko‘pincha rasmiy kechirim va xizmat ko‘rsatish etiketi (ritualizatsiya) bilan tizimli bog‘langan. Korpus tahlili yapon matnlarida ushbu birlikning 42% holatda sof rasmiy uslubda uchrashini, o‘zbek matnlarida esa “bosh egmoq”ning rasmiy uslubdagi ulushi atigi 23% bo‘lib, ko‘proq umumiy emotsional-badiiy doirada qolishini ko‘rsatdi.

### **Munozara**

Olingan natijalar somatik frazeologiya bo‘yicha umumiy kognitiv qarashlar bilan mos keladi, chunki tananing markaziy a‘zolari orqali abstrakt domenlarni modellashtirish ko‘plan tillarda uchraydi. G. Lakoff va M. Johnson taklif etgan konseptual metafora g‘oyasi “bosh = nazorat / intellekt” va “yuz = ijtimoiy qiyofa” xaritalarini izohlashga to‘liq yordam beradi. Biroq tadqiqotimiz ushbu xaritalarning qaysi registrda faollashishi bevosita milliy madaniy skriptlar bilan belgilanishini isbotladi.

Yapon tilidagi yuz komponentli birliklarda ijtimoiy munosabat registri 60% bo‘lsa, o‘zbek tilida bu ko‘rsatkich 24%ni tashkil etdi. Farq 36 foiz punktga teng

bo‘lib, bu tasodifiy emas, balki tizimli pragmatik ustuvorlikdan darak beradi. Yapon madaniy skriptida “yuzni saqlash” boshqaga yo‘naltirilgan ehtiyotkorlik va jamoaviy uyg‘unlikni (*wa*) saqlashga xizmat qilsa, o‘zbek madaniy skriptida “yuz” ko‘proq individual sha‘n, sharm-hayo va jamoatchilik oldidagi axloqiy pozitsiyani ifodalaydi. Bu holat ikki xalqning mentaliteti va kommunikativ madaniyatidagi farqlar – o‘zbek tilidagi ijtimoiy eksplitsitlik (to‘g‘ridan-to‘g‘ri baho berish) va yapon tilidagi kommunikativ ehtiyotkorlik (bilvositalik) bilan izohlanadi.

### **Tarjimashunoslik va amaliy jihatlar**

O‘zbek va yapon materialini solishtirish tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan ham o‘ta muhim, chunki somatik birliklar ko‘pincha so‘zma-so‘z tarjimada jiddiy pragmatik xatoga olib keladi. Ekvivalentlik nafaqat denotativ ma‘noda, balki baholash qutbi va nutqiy vaziyat mosligida ham ta‘minlanishi kerak; aks holda bir tilning odob strategiyasi ikkinchisida qo‘pollik yoki sun‘iylik sifatida qabul qilinishi mumkin.

Korpus kontekstlarida o‘zbek tilidagi salbiy yuz komponentli birliklarning 62 foizi bevosita adresatga qaratilgan ekspressiv baholash bilan kelgan (masalan, “Yuzsiz odam”). Yapon tilida esa salbiy yuz birliklarining 48 foizi bilvosita uchinchi shaxs yoki umumiy vaziyatga qaratilgan kontekstlarda uchraydi. Yapon muhitida to‘g‘ridan-to‘g‘ri “yuzsiz” deb ayblov qo‘yish muloqotni butunlay uzib qo‘yishi mumkin bo‘lgan og‘ir qo‘pollik hisoblanadi. Shuning uchun amaliy tavsiya sifatida tarjimada “somatic komponentni saqlash” emas, balki “baholash qutbi va pragmatik registri saqlash” birlamchi mezon bo‘lishi lozim.

### **Tadqiqot cheklovlari va istiqbollari**

Tadqiqot cheklovlari shundan iboratki, frazeologik materialni lug‘at va korpuslardan to‘liq qamrab olish amalda mushkul va mavjud korpuslar janriy jihatdan mukammal darajada teng taqsimlanmagan. Yapon materialida rasmiy-etiket kontekstlari, o‘zbek materialida esa badiiy va og‘zaki uslub ulushi biroz ustunlik qilgan bo‘lishi ehtimoli bor. Kelajakda bir xil janrlar bo‘yicha parallel korpuslar tuzish, shuningdek, eksperimental pragmatika (masalan, reyting baholash testlari) orqali frazeologik birliklarning real muloqotdagi zamonaviy dinamikasini tekshirish lozim.

### **XULOSA**

Tadqiqot o‘zbek va yapon tillaridagi bosh va yuz komponentli somatik frazeologik birliklar lingvokulturologik jihatdan o‘xshash kognitiv-somatik asosga ega ekanini, biroq pragmatik registrlar va baholash taqsimotida milliy mentalitet taqozosi bilan tizimli farqlar mavjudligini ko‘rsatdi.

1. **Bosh komponenti** har ikki tilda ham insonning tafakkuri, ruhiy holati, kognitiv nazorati va ierarxik yuqori nuqtasini ifodalaydi. Biroq o‘zbek tilida u ko‘proq shaxsiy sharaf, rahbarlik va ochiq emotsional holatlar bilan bog‘lansa, yapon tilida ijtimoiy ierarxiya, kamtarlik va kuchli ichki nazorat konseptlariga xizmat qiladi.

2. **Yuz komponenti** har ikki tilda “ijtimoiy qiyofa va obro‘” domenini modellashtiradi. O‘zbek madaniyatida u individual axloqiy norma va normativ qoralash vositasi (ochiq ijtimoiy baholash) sifatida namoyon bo‘ladi [1, 145-b.]. Yapon madaniyatida esa muloqotda ziddiyatni pasaytirish, ijtimoiy muvozanatni saqlash va "boshqaga yo‘naltirilgan odob" formulasining asosiy indeksatori hisoblanadi.

Tadqiqotda taklif etilgan “nominal somatizm–baholovchi predikatsiya–madaniy skript” modeli frazeologizmlarning diskursiv tabiati va kommunikativ vazifasini tizimli tasvirlash imkonini berdi. Maqola xulosalari qiyosiy tilshunoslik, kognitiv semantika, madaniyatlararo pragmatika hamda o‘zbek-yapon amaliy tarjimashunosligi uchun muhim empirik manba bo‘lib xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 384 b.
2. Виноградов В. В. Основные типы фразеологических единиц русского языка // Избранные труды. Лексикология и лексикография. – Москва: Наука, 1977. – С. 140–161.
3. Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. – Москва: Высшая школа, 1996. – 381 с.
4. Маслова В. А. Лингвокультурология. – Москва: Академия, 2001. – 208 с.
5. Телия В. Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – Москва: Школа "Языки русской культуры", 1996. – 288 с.
6. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.
7. Brown P., Levinson S. C. *Politeness: Some Universals in Language Usage*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 345 p.
8. Wierzbicka A. *Semantics, Culture, and Cognition: Universal Human Concepts in Culture-Specific Configurations*. – Oxford: Oxford University Press, 1992. – 496 p.
9. Mamatov A. E. O‘zbek frazeologiyasi masalalari. – Toshkent: Fon, 1999. – 120 b.

10. Teliya V. N. *Phraseology and Culture // Phraseology: Theory, Analysis, and Applications*. – Oxford: Clarendon Press, 1998. – Pp. 55–75.
11. Iskandarova Sh. *Lingvokulturologiya asoslari*. – Toshkent: Kalaon, 2010. – 148 b.
12. Safarov Sh. *Kognitiv tilshunoslik*. – Jizzax: Sangzor, 2006. – 92 b.